

STRUKTURALIZM VA FUNKSIONALIZM: PSIXALOGIYA FANLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Umarova Munisa Elbek qizi

SHDPI ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya yunalishi

1-25-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi psixologiya fanining mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanish jarayonida muhim o'rin tutgan strukturalizm va funksionalizm yo'nalishlari tahlil qilinadi. Strukturalizm ongning tuzilishini introspeksiya metodi asosida o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa, funksionalizm psixik jarayonlarning insonning muhitga moslashuvdagi vazifalarini ochib beradi. Mazkur yo'nalishlarning asoschilari, metodologik xususiyatlari, afzallik va cheklanishlari yoritilib, ularning psixologiya fanining keyingi rivojiga ta'siri asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy psixologiya nazariy va amaliy yo'nalishlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: Strukturalizm, funksionalizm, psixologiya tarixi, ong, introspeksiya, psixik jarayonlar, Vilgelm Vundt, Uilyam Jeyms, ilmiy maktablar, psixologiya fanining shakllanishi.

KIRISH

Psixologiya fani inson psixikasi va xulq-atvorini o'rganadigan mustaqil ilmiy soha sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Ushbu davrga qadar psixologik bilimlar asosan falsafa, tibbiyot va biologiya fanlari tarkibida rivojlanib kelgan. Fan taraqqiyoti jarayonida inson ongini ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, natijada psixologiya mustaqil tadqiqot metodlari va nazariy asoslariga ega bo'ldi.

Psixologiya fanining shakllanishida strukturalizm va funksionalizm yo'nalishlari muhim o'rin egallaydi. Strukturalizm ongning tuzilishini tahlil qilish orqali psixik jarayonlarning asosiy elementlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, funksionalizm psixik jarayonlarning inson hayotidagi vazifalari va muhitga moslashuvdagi ahamiyatini o'rganishga yo'naltirilgan. Mazkur yo'nalishlar psixologiya fanining nazariy va metodologik poydevorini yaratib, keyingi ilmiy maktablar rivojiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu tezisning maqsadi strukturalizm va funksionalizm yoʻnalishlarining vujudga kelish sabablari, asosiy gʻoyalari hamda psixologiya fanining rivojlanishidagi oʻrnini tahlil qilishdan iboratdir.

Asosiy qism

1879-yilda nemis olimi Vilgelm Vundt tomonidan tashkil etilgan dunyodagi birinchi eksperimental psixologik laboratoriya psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishida muhim bosqich boʻldi. Ushbu laboratoriyada olib borilgan koʻplab tajriba va eksperimentlar psixologiyaning ilmiy asosga ega fan ekanligini amalda isbotladi. V. Vundt tibbiyot, fiziologiya va falsafa sohalarida chuqur bilimlarga ega boʻlgani sababli inson psixikasini turli fanlar yondashuvi asosida oʻrganishga muvaffaq boʻldi.

Olim inson psixikasida kechadigan jarayonlarni — oddiy sezgidan tortib murakkab tafakkurgacha, shuningdek hissiy holatlarni eksperimental usullar orqali tadqiq etdi. Uning asosiy maqsadi inson ongini tashkil etuvchi eng sodda, sof elementlarni aniqlashdan iborat edi. Aynan shu yondashuv psixologiyada strukturalizm deb nomlangan yoʻnalishning shakllanishiga olib keldi. Strukturalizm ongni tuzilma sifatida koʻrib, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga urgʻu berdi.

V. Vundtning ilmiy qarashlari psixologiya rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatdi va bu taʼsir Amerika Qoʻshma Shtatlarida yangi yoʻnalish — funksionalizmning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Ushbu yoʻnalish vakillari, jumladan E. Titchener, inson xulq-atvorini nafaqat ongning ichki elementlari, balki faoliyat jarayonida namoyon boʻladigan, kuzatish mumkin boʻlgan belgilar asosida ham baholash mumkinligini taʼkidladilar.

Funksionalizmning yanada rivojlanishida amerikalik psixolog Uilyam Jeymsning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etdi. U psixologiyani ong elementlarini emas, balki ongning faoliyatini va uning inson hayotidagi vazifalarini oʻrganuvchi fan sifatida taʼrifladi. Jeymsga koʻra, ong doimiy harakatda boʻlib, yaxlit va dinamik tizim hisoblanadi. Ong faoliyatida tananing fiziologik holati va shaxsning faolligi muhim rol oʻynaydi.

Shu tariqa, funksionalizm psixik jarayonlarning insonning tashqi muhitga moslashuvi va hayotiy faoliyatidagi ahamiyatini ochib berdi. Natijada strukturalizm va funksionalizm psixologiya fanining shakllanishida muhim ilmiy yoʻnalishlar sifatida namoyon boʻldi va keyingi psixologik maktablar rivoji uchun mustahkam poydevor yaratdi. Strukturalizm va funksionalizm psixologiya fanining shakllanish davrida

vujudga kelgan ikki asosiy nazariy yoʻnalish boʻlib, ular inson psixikasini oʻrganishda turli yondashuvlarni taklif etadi. Strukturalizm inson ongini tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilishga intiladi va psixik hodisalarning ichki tuzilishini aniqlashni asosiy vazifa deb biladi. Ushbu yoʻnalish asosan laboratoriya sharoitida olib borilgan eksperimentlarga va introspektiv tahlilga tayangan.

Funksionalizm esa psixik jarayonlarni ularning hayotiy vazifalari va inson faoliyatidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan izohlaydi. Bu yoʻnalish vakillari ongni statik tuzilma emas, balki doimiy harakatda boʻlgan, moslashuvchan tizim sifatida talqin qilganlar. Funksionalizm psixologiyani real hayot muammolarini hal qilishga yoʻnaltirib, uning amaliy yoʻnalishlar bilan bogʻlanishiga zamin yaratdi.

Shunday qilib, strukturalizm psixologiyada tahliliy-nazariy asoslarni shakllantirgan boʻlsa, funksionalizm fan rivojida amaliy va moslashuvga yoʻnaltirilgan yondashuvni kuchaytirdi. Har ikki yoʻnalish psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishida muhim rol oʻynadi.

Xulosa. Strukturalizm va funksionalizm psixologiya fanining mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan nazariy maktablardir. Ushbu yoʻnalishlar psixik hodisalarni oʻrganishda turli yondashuvlarni taklif etgan boʻlsa-da, ularning har biri psixologiya rivojiga oʻziga xos hissa qoʻshdi. Strukturalizm psixologik tadqiqotlarda eksperimental aniqlik va tahliliy yondashuvni mustahkamlagan boʻlsa, funksionalizm psixik jarayonlarning amaliy ahamiyati va moslashuvdagi rolini ochib berdi. Natijada, bu ikki yoʻnalish keyingi psixologik maktablar va zamonaviy psixologik tadqiqotlar uchun nazariy hamda metodologik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy psixologiya : darslik / Gʻ.B. Shoumarov tahriri ostida. — Toshkent : Oʻqituvchi, 2002. — 432 b.
2. Gʻoziyev E.Gʻ. Psixologiya : darslik. — Toshkent : Oʻqituvchi, 2003. — 384 b.
3. James W. The Principles of Psychology. — New York : Henry Holt and Company, 1890. — Vol. 1–2.
4. Titchener E.B. Outline of Psychology. — New York : Macmillan, 1896. — 320 p.
5. Wundt W. Grundzüge der physiologischen Psychologie. — Leipzig : Wilhelm Engelmann, 1874. — 870 S.